BO'LAJAK PEDAGOGDALARDA UMUMIY VA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Tursunpo'latova Nilufar Zafar qizi
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti, pedagogika yo'nalishi, 2-bosqich talabasi
Email: nilufartursunpolatova0@gmail.com

Qabul qilindi: 06.10.2025
Ko'rib chiqildi: 07.10.2025
Tasdiqlandi: 08.10.2025

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglarning ta'lim- tarbiya jarayonidagi vazifasi, shuningdek pedagogning umumiy va kasbiy madaniyati jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar:
nutq madaniyati, tarbiya, pedagogika, ta'lim, barkamol avlod, mahorat.

Kirish. 1997-yil 29-avgustda 463.1 sonli kadrlarni qayta tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Bu dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifalardan biri, dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi , buyuk kelajagimiz poydevorini quradigan va millatimizni yukasaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir.Pedagogika yo'nalishini tanlagani har bir inson kimlarni o'qitayotgan va tarbiyalayotganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan bir qatorda pedagog, o'qituvchi, tarbiyachi, muallim bo'lish huquqiga ega bo'liwi uchun juda ko'plab majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi lozim. Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantirib boruvchi soha xalq ta'limi tizimi hisoblanadi. Pedagoglar esa uni amalga oshiruvchi shaxslardir. Barchamizga ma'lumki muallimlik kasbi sharafli kasblardan biridir. Uning sharafliligi 'oqituvchi turli bilimlarni 'orgatuvchi yoke

mohir tarbiyachi bo‘lganligida emas, balki uning o‘zi tanlagan kasb-hunar yo‘nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo‘yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo‘lgan fundamental fanlarni hamda o‘qitish va tarbiya berishni psixologiya va pedagogik asoslarini a’lo darajada egallagan bo‘lishi shart.Pedagog bu – yuksak madaniyatli o‘z fanini chuqur biluvchi o‘z kasbini, bolalarni yaxshi ko‘radigan va albatta ta’lim tarbiya metodikasi va psixologiyasini mukammal bilguvchidir.Ta’lim tarbiya jarayonidan ko‘zlangan asosiy maqsad yetuk shaxs va albatta jamiyatimiz uchun kerakli malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak pedagoglarda umumiy va kasbiy madaniyatni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur masalaga oid ilmiy adabiyotlarda pedagog shaxsining madaniyati — uning kasbiy kompetensiyasi, axloqiy qadriyatlari, kommunikativ ko‘nikmalari, estetik didi va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim jarayonida shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, bo‘lajak pedagoglarda yuksak ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, pedagog tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida umumiy va kasbiy madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda (A. Avliyoqulov, N. Azizxo‘jayeva, B. Ziyomuhamedov, Sh. Sharipov va boshqalar) umumiy madaniyat shaxsning dunyoqarashi, nutq madaniyati, estetik didi, mehnat va muloqot madaniyati orqali namoyon bo‘lishi qayd etiladi. Kasbiy madaniyat esa o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka hamda pedagogik mahorat darajasi bilan belgilanadi.

Shunday ekan biz ta'lim tarbiya samaradorligini o'quvchilarning qay darajada bilim, ko'nikma va malakaga va malakaga ega ekanliklari, mustaqil bilim olishga jamiyatda o'z o'rinlarini topish uchun qanday tayyorligini doimiy ravishda kuzatib borishimiz, unga baho berishimiz lozimligini bilishimiz shart.Yana shuni aytishimiz mumkinki zamonaviy ta'lim sharoitida pedagog faqat bilim yetkazuvchi emas balki madaniyat tarqatuvchi shaxs ham bo'lishi lozim. Bo'lajak pedagoglarda umumiy va kasbiy madaniyatni shakllantirish ularni kelgusida yuksak madaniyatli bilimdon zamon bilan hamnafas va yosh avlodga namuna bo'la oladigan shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy yo'lidir. Bu esa o'z navbatida butun ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.Umumiy madaniyat shaxsning ijtimoiy hayotoda faol ishtirok etishga xizmat qiluvchi axloqiy, estetik, madaniy, huquqiy, ma'naviy bilimlar va qadriyatlar tizimidir.Kasbiy madaniyat – bu pedagog kasbining o'ziga xos xususiyatlari etik me'yorlarga rioya qilish ta'lim berish jarayonida samarali vosita va usullardan foydalanish madaniyatidir.Bo'lajak pedagog shaxsini shakllantirishda metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi va quyidagi metodik yondashuvlar qo'llaniladi.Kampetinsiyaviy yondashuv: Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikma va kasbiy vaziyatlarga tayyorlashni shakllantiradi.Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Har bir talabaga individual yondashib uning ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi.Metodik vosita va usullar Amaliy mashg'ulotlar: pedagogik vaziyatlar asosida kasbiy muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Bu jihat pedagoglar uchun muhim hisoblanadi. Bu orqali pedagogik ish faoliyatida sodir bo'ladigan turli kanflekt jarayonlariga tayyorlab boriladi.Rol o'ynash metodikasi: Kasbiy roldagi vazifalarni bajarish orqali talabalar o'zini haqiqiy pedagog sifatida sinab ko'radi

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda umumiy va kasbiy madaniyatni shakllantirish tizimli, izchil va maqsadga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi. Pedagogik ta'lim jarayonida

nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarur. Ayniqsa, o‘qituvchining nutq madaniyati, muloqot madaniyati, kiyinish, o‘zini tutish, axloqiy qadriyatlarga amal qilish madaniyati — umumiy madaniyatning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Kasbiy madaniyat esa o‘qituvchining o‘quv jarayonini boshqarish mahorati, darsda innovatsion va interfaol metodlardan samarali foydalanishi, shuningdek, o‘quvchilarga namuna bo‘la olish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu jihatlar bo‘lajak pedagoglar uchun amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyotlar, treninglar va kreativ loyihalar orqali shakllantiriladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kasbiy madaniyatni shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati nafaqat bilim va ko‘nikmalarga, balki pedagogning umumiy va kasbiy madaniyat darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Bo‘lajak pedagoglarda ushbu madaniyatni shakllantirish – ularning kasbiy tayyorgarligida muhim bosqich bo‘lib, bu jarayon ilmiy-metodik yondashuvni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishni talab qiladi.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, umumiy madaniyat – bu estetik, axloqiy, ma’naviy va intellektual rivojlanishni nazarda tutsa, kasbiy madaniyat – o‘qituvchining kasbiga bo‘lgan yondashuvi, kasbiy etikasi, pedagogik mahorati va mas’uliyat hissi bilan bog‘liqdir. Ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘un holda shakllantirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, yosh avlod tarbiyasida sifatli natijalarga erishishni ta’minlaydi.Shuning uchun pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning umumiy va kasbiy madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar yanada takomillashtirilishi lozim. Bu boradagi tizimli ishlar kelajakda raqobatbardosh, yuqori madaniyatli va kasbiga sadoqatli pedagoglarni tayyorlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Avliyoqulov A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. – T.: Istiqlol, 2019.
4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
5. Ziyomuhamedov B. Pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi. – T.: TDPU nashriyoti, 2018.
6. Jo‘rayev M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi. – T.: Oliy ta’lim, 2021.
7. Jalolova G. Pedagogik madaniyat va pedagogik tafakkur asoslari. – Samarqand: SamDU, 2017.
8. To‘xtaxodjayeva N. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. – T.: TDPU, 2022.
9. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
11. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill, 1969.
12. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007.